

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR
MILLIY MARKAZI
TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAZIROV RAXMATJON RASULOVICH

**PAXTA XOMASHYOSINI QURITISHNING SAMARADORLIGINI
OSHIRISH VA RESURS ENERGIYATEJAMKORLIGINI
TA'MINLASHNING ILMIY ASOSLARI**

05.06.02 – "To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish"

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent viloyati – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по техническим наукам

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on technical sciences**

Nazirov Raxmatjon Rasulovich

Paxta xomashyosini quritishning samaradorligini oshirish va resurs energiyatejamkorligini ta'minlashning ilmiy asoslari 3

Назирова Рахматжон Расулович

Научные основы повышения эффективности сушки хлопкового сырья и обеспечения ресурс энергоэффективности 31

Nazirov Rakhmatjon Rasulovich

Scientific foundations for improving the efficiency of drying cotton raw materials and ensuring energy efficiency 59

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR
MILLIY MARKAZI
TOLALI EKinLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKinLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

NAZIROV RAXMATJON RASULOVICH

**PAXTA XOMASHYOSINI QURITISHNING SAMARADORLIGINI
OSHIRISH VA RESURS ENERGIYATEJAMKORLIGINI
TA'MINLASHNING ILMIY ASOSLARI**

05.06.02 – "To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish"

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent viloyati – 2026

Texnika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/T944 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://teiti.uz/>) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Djamolov Rustam Kamolidinovich
texnika fanlari doktori, professor

Ro'zmetov Raxmatjon Ibodullayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Djumabaev G'ulomjon Xalillayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.T.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil 5 avgust soat 15⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUEAITL. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 4-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yxatdan o'tgan 54-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYATTI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 22 iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil 22 iyul №54 - raqamli reestr bayonnomasi).



Q. Jumaniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., prof.

M.R. Mo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh. Sulaymonov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash etakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Ushbu sohada, jumladan paxtani quritishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, zamonaviy uskunalarni yaratish, quritish mashinalarining samaradorligini oshirish hamda quritish jarayonini tahlil qilish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Dunyo miqyosida AQSH qishloq xo'jaligi departamentining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda 26126,9 ming tonna paxta tolasi yetishtirilganini va buncha tolani olishda paxta xomashyosini quritish jarayoni muxim o'rin tutishini xisobga olsak, paxtani dastlabki ishlashda quritish jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan etishtirilgan paxta xomashyosini dastlabki ishlashda uni quritish uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xomashyosini dastlabki ishlashda uning tarkibidagi kerakli miqdordan ortiqcha namlikni quritish uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy echimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxta xomashyosini dastlabki ishlashda quritish bosqichida – amaldagi reglament talablariga mos ravishda quritishda yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, paxta xom ashyosini quritish bilan birga metall sarfi va yoqilg'ini tejashni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxtani qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni tarmoq korxonalariga joriy qilish, shuningdek, paxtani qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida... *ошириш...*¹, jumladan, «“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini, jumladan, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, jumladan, paxtani dastlabki tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qoluvchi resurstejamkor, samaradorligi yuqori bo'lgan paxtani quritish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan mashinalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillardagi mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 maydagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-71-son farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-2-son Farmoni, 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishigamos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Paxta xomashyosini quritish texnologik jarayonlarga yangi innovatsiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha horijda bir qator ilmiy tadqiqot institutlari, kompaniyalari va oliy o'quv yurtlarida "Continental Eagle Corporation", "Moss-Gorden Continental", "Platt Lummus", "Continental Murray" (AQSh), "Cotton reseach and devolepment corporation" (Avstraliya), "National Research Center for Cotton processing engeeniring and technology", "China Cotton Industries Limited", "Handan Golden Lion", "Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University", "Lebed" (Xitoy)da hamda Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti, ("Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, xozirgi nomlanishi "tolali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti" (O'zbekiston) da keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda olib borilgan paxta xomashyosini quritish bo'yicha texnika va texnologiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: paxtani quritishning zamonaviy texnologiyasi yaratilgan, xorijiy paxtani quritish-tozalash uskunasi kompleksi ishlab chiqilgan ("Moss-Gorden Continental", "Platt Lummus", "Continental Murray" AQSh) sochiluvchan materiallarni barabanli rolikli yuritmal quritish uskunalari ishlab chiqilgan (Rossiya), paxtani tokchali quritish uskunasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("China Cotton Industries Limited", "Handan Golden Lion", "Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University", "Lebed", paxta xom ashyosini barabanli qurititgichining nazariy qonuniyatlari olingan (Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti, O'zbekiston), quritish agentini resirkulyasiya qilish tizimi bilan paxtani quritish-tozalash agregati yaratilgan ("Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, O'zbekiston).

Dunyoda paxta xomashyosini quritish uchun uskunalar va texnologiyalarni yaratish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: paxtani quritishning resurstejamkor, ixchamlashtirilgan konstruktiviyali uskunalarini yaratish va ularning ilmiy asoslarini rivojlantirish; paxtani quritish

² № 1117, №66у-2013 сонли илмий-тадқиқот иши бўйича хисоботлар, "Пахтасанаоат илмий маркази" АЖ, Тошкент 2012-2013 йй. <http://jubus.com>, www.petkus.com, <https://www.researchgate.net/publication/280971045>

jarayonining samarali texnika-texnologiyasini va ularning ishchi qismlarining rasional konstruksiyasini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxtani quritish va tozalash texnologik jarayonlariga yangi innovatsiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, S.T. Antipov, V.Ya. Valuyskiy, V. Mesnyankin, V.Ya. Yavchunovskiy, T.M. Kunilova, D.J. Djanabayev, A.K. Haghi, S. Thomas, L.A. Pothan, Arun S. Mujumdar, G.M.Gabdullin, K.N.Salmin, A.I. Uldiyakov, K.M. Salmin, A.V. Naumeyko, D.G. Usadskiy, Ye.V. Ametistov, A.G. Mixaylov, L.M. Maxov, G.N. Alekseyev, B.S. Sajin, A.A. Guxman, V.P. Isachenko, V.V. Buxmirov, A.B. Altuxov va boshqalar.

Paxtani quritish va unda qo'llaniladigan mashinalarning parametrlarini asoslash, ushbu mashinalarning asosiy parametrlarini optimallashtirish, mahsulotning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: G.V.Bannikov, A.P. Parpiyev, S.D. Baltabayev, X.K. Davidbayev, B.M. Mardonov, A. K. Usmonqulov va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida paxtani dastlabki ishlashning mavjud texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, tola sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, paxtani quritish barabanining energiya va resurs tejaydigan ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini ishlab chiqish, texnologik ko'rsatkichlarining quritish jarayoniga ta'siri nazariy ishlab chiqish, barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini rolikli zanjirli uzatmasini harakat uzatish qonuniyatlari aniqlash, quritish barabani parametrlarini mahsulot sifatiga ta'sirini tadqiq etish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ ning Ilm-2023012188-sonli "Zamonaviy paxta tozalash korxonalari uchun innovatsion avtomatlashtirilgan resurstejamkor mahalliy texnika va texnologiyalar kompleksini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Paxtani barabanli quritgichiga quritish agentini radial kiritish usulini qo'llab texnologik jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslash xamda paxtani barabanli quritgichini ixchamlashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish bilan uning texnologik jarayonini takomillashtirish va parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta xomashyosini quritishda ishlatiladigan mahalliy va xorijiy texnologik mashinalarni ishlash tamoyillari, konstruktiv xususiyatlarni, texnik va texnologik tasniflarini analitik tahlil etish;

paxta xomashyosini barabanli quritgich ichiga quritish agentini radial kiritish usulini quritish jarayoniga ta'sirini nazariy tahlil etish;

paxta xomashyosini barabanli quritgich ichiga quritish agentini radial kiritish usulini qo'llovchi texnologik konstruksiyasini ishlab chiqish;

barabanli quritgich ichiga quritish agentini radial kiritish usulini qo'llovchi texnologik konstruksiyasini tajribaviy tadqiqotlarini bajarish;

barabanli quritgich ichiga quritish agentini radial kiritish usulini qo'llovchi texnologik konstruksiyasini ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

paxta xomashyosini barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini uning paxtani quritish jarayoniga ta'sirini nazariy tahlil etish;

paxta xomashyosini barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini ishlab chiqish;

barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini asosiy parametrlari va aerodinamik ishlash rejimlarini asoslash maqsadida tajribaviy tadqiqotlarini bajarish;

barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxtani quritish barabani ichiga quritish agentini radial kiritish moslamali eksperimental namunasi va paxtani quritish uchun barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini eksperimental namunasi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxtani quritishning texnologik jarayoni, quritish agentini baraban ichiga radial kiritishni barabanda paxta xom ashyosini quritish texnologik parametrlariga bog'liqligi qonuniyatlari, barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini paxta xomashyosini quritish texnologik parametrlariga bog'liqligi qonuniyatlari, quritish agentining uzatishdagi dinamik va matematik modellar, bog'lanish grafiklari va uning barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini konstruksiyasiga bog'liq ravishda harakatlanish qonuniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mexanika, gidravlika, gaz aralashmalari mexanikasi, algebra va tavsifiy geometriya qonunlari, tegishli davlat standartlari, mavjud va maxsus ishlab chiqilgan usullar, statistik va matematik hisoblash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani xomashyosini 2SB-10 quritish barabani korpusining o'qiga nisbatan 45^0 burchak ostida quritish agentini radial kiritish texnologik usuli ishlab chiqilgan;

paxta xomashyosi quritish barabanini aerodinamik rejimini saqlab qolish shartidan radial kiritiluvchi quritish agentining miqdorini aniqlovchi bog'liqlik tenglamalari ishlab chiqilgan;

xavo oqimini kerakli tezligi va bosimini ta'minlash shartidan radial usulni amalga oshiruvchi quvurdagi teshiklar soni diametri, quvur o'qi bo'ylab qiyalik burchagining optimal parametrlari aniqlangan;

paxta xomashyosini quritish jarayonida energiya va resurs tejashni ta'minlaydigan kichik xajmli, zanjirli uzatmali yangi quritish barabanli ishlab chiqilgan;

yangi quritish barabanining rolikli yuritmasini sirpanishsiz xarakatini ta'minlash shartidan zanjirli uzatmani yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalarining

parametrlari va xarakatni uzatish nisbatlarini aniqlovchi regression tenglamalar tizimi ishlab chiqilgan;

paxta xomashyosini quritish bo'yicha ish unumdorligi maksimal 6 t/soat bo'lganda paxtadan yuqori darajada namlikni olishni ta'minlaydigan kichik xajmli zanjirli uzatmali quritish barabanining texnologik va konstruktiv parametrlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta xom ashyosini quritish jarayonida namlikni olish samaradorligini oshiradigan, shuningdek paxtani quritish agentini temperaturasini va yonilg'i sarfini kamaytirish imkoniyatini ta'minlaydigan quritish agentini radial holatda kiritish usuli ko'llanilgan quritish barabani ishlab chiqarilgan;

xavo oqimini kerakli tezligi va bosimini ta'minlash shartidan radial usulni amalga oshiruvchi quvurdagi teshiklar soni diametri, quvur o'qi bo'ylab qiyalik burchagining optimal parametrlari aniqlangan va quritish agenti umumiy miqdorining 40% ini radial kiritib berilishi tavsiya etilgan;

paxta xomashyosini quritish jarayonida energiya va resurs tejashni ta'minlaydigan kichik xajmli, zanjirli uzatmali yangi quritish barabanli ishlab chiqarilgan;

o'rtacha 6,0 tonna/soat quritilayotgan paxta bo'yicha ish unumdorligida paxtadan 4% namlikni olishni ta'minlaydigan diametri 2000 mm ga teng bo'lgan baraban korpusiga mahkamlanadigan tishli g'ildirakdagi tishlar soni 124 dona, kichik yetaklovchi tishli g'ildirakda esa 18 dona, uzatishlar nisbati 7, tishli g'ildiraklar o'qlari orasidagi maksimal masofa 4,64 m ga teng bo'lgan zanjirli uzatmalar tizimi ishlab chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi takomillashtirilgan barabanli quritgichning ichki qismiga quritish agentini radial kiritish moslamasining asosiy parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlar natijalarining uni ishlab chiqarishga joriy qilishda tajriba sinovlarida olingan tadqiqot natijalari bilan mos kelishi bilan va takomillashtirilgan barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini asosiy parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlar natijalarining uni ishlab chiqarishga joriy qilishda tajriba sinovlarida olingan tadqiqot natijalari bilan mos kelishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatikichik hajmli zanjirli uzatmali barabanli quritgichning ishchi organlari va paxta xomashyosini quritish jarayonini nazariy bog'lanishlari hamda paxtani quritish samarasini kichik xajmli barabanli quritgichga paxtani maqbul miqdorlarda berishni analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, paxtani quritish texnologik jarayonini ratsional parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati takomillashtirilgan barabanli quritgichning ixchamlashtirilgan texnologik uskunasini qo'llanilgan quritish barabanidan foydalanish paxta xomashyosini quritish jarayonida namlikni olish samaradorligini oshirishi, shuningdek paxtani quritish agentini haroratini va yonilg'i sarfini kamaytirish imkoniyatini ta'minlashi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalaridan loyihalash tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan barabanli quritgich konstruksiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek ishlab chiqarish

sharoitida ishlab chiqilgan barabanli quritgichni ishga tushirishda foydalanish mumkinligini tajribalar natijasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani quritish uchun barabanli quritgichning takomillashtirilgan konstruksiyalarini ishlab chiqish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

paxtani xomashyosini 2SB-10 quritish barabani korpusining o'qiga nisbatan 45⁰ burchak ostida quritish agentini radial kiritish usuli Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "NAVOIY TEXNO TEKSTIL GROUP" MCHJda paxtani yuqori samarali intensiv usulda quritish uskunasi tajriba nusxasi ishlab chiqarishga joriy etilgan. Natijada amaldagi 2SB-10 ga nisbatan quritish agentidan foydalanish samarasini oshishi evaziga quritilayotgan paxtadan olinadigan namlik miqdori 1,5-2,0 % ga oshishiga hamda paxtadan olinadigan tola tarkibidagi iflos aralashmalarning vazniy ulushini amaldagi texnologiyaga nisbatan 0,1-0,3 % ga kamayishiga erishildi.

kichik hajmli resurstejamkor zanjirli uzatmali paxtani barabanli quritgichining takomillashtirilgan namunasi Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi "Boyovut Techno Cluster" MCHJ klasteriga qarashli paxta tozalash korxonasiga ishlab chiqarishga joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2026 yil 8 apreldagi № 01/06-516-son ma'lumotnomasi). Natijada tavsiya etilgan kichik hajmli resurstejamkor zanjirli uzatmali paxtani barabanli quritgichining takomillashtirilgan namunasining foydalanish samarasini oshishi evaziga quritilayotgan paxtadan olinadigan namlik miqdori 2,0-2,5 % bo'lishiga erishilgan hamda quritish barabanining hajmi kichraygani hisobiga tannarxini kamayishi, elektr energiya va tabiiy metan gaz sarfini kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokama o'tgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqolalar, jumladan 7 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 2 ta monografiya chop etilgan, 2 ta foydali modelga patent olingan, 1 ta foydali modelga talabnoma rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 183 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari, shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy

ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning holati va tadqiqotning vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyot manbalarining tahliliy sharhiga va paxta xomashyosini quritish texnologiyasi va texnikasining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda keltirilishicha paxta xomashyosini quritish uchun hozirgi vaqtda asosan konvektiv usul qo'llaniladi, unda paxta xomashyosi qurituvchi vosita tomonidan puflanadi, u atmosfera havosini yoki uning tabiiy gaz yoki boshqa yoqilg'i issiqlik generatorida yonish mahsulotlari bilan aralashtiriladi. Hozirda paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan 2SB-10 tipidagi barabanli quritgichlar ko'plab kamchiliklarga ega. Paxta xomashyosini quritish uchun to'g'ri oqimli quritish barabanining issiqlik iste'molidan foydalanish effekti atigi 35-40% ni tashkil qiladi, qolgan issiqlik asosan quritgichni tashqi korpusini isitish orqali va atmosferaga chiqadigan quritish agenti bilan yo'qoladi, bu esa atrof-muhitni ifloslantiradi.

Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun texnik yechim ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Taklif etilgan quritish agentini radial kiritish ko'llanilgan quritish barabani sxemasi

Bu taklif (1-rasm) 2SB-10 barabani 1, quritish agentini radial usulda kiritish quvuri 2, undagi maxsus teshiklar 5, paxtani kiritish uchun qiya lotok 3 va quritish agenti quvuri 4 dan tashkil topgan.

Tavsiya etilgan quritgichda paxta xom ashyosini quritishning texnologik jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Paxta xom ashyosi barabanga qiya ta'minlovchi lotok orqali kiradi. Baraban reduktor qutisi va elektr dvigatel orqali boshqariladi. Barabanning bir uchidan quritish agenti kirishi va paxta xom ashyosini yuklash, ikkinchisi orqali - quritilgan paxta chiqishi va ishlatilgan quritish agentini chiqarib tashlash ta'minlanadi. Quritish agenti teshikli quvur orqali barabanga beriladi. Baraban aylanganda, uning kuraklari paxta xom ashyosini ushlab, aralashtiradi va yuqoriga ko'taradi, keyin u quvur teshiklaridan 10-15 m /s tezlikda 100-160⁰S harorat bilan oqib chiqadigan quritish agentiga tushadi. Shu bilan birga, quritish agenti teshikdan chiqish tezligi yuqori bo'lganligi uchun baraban korpusida yotgan paxta massasiga xam ta'sir etadi.


Bu radial quritish agentini ta'minoti bilan quritish barabani, yangi aerodinamika (250⁰ S o'rniga 160⁰ S gacha tushgan) quritish agenti yordamida 2SB-10 barabanida paxta xom ashyosini bir o'tishda quritish imkonini beradi, deb taxmin qilinmoqda.

Quvur teshiklaridan oqib chiqadigan radial quritish agenti oqimlarining harakati barabanda yuqoriga ko'tarilib tushayotgan paxtani aktiv titib qizdirishi bajariladi. Paxta bo'laklarining kuchli tebranishi ro'y beradi, ular titiladi, chigit va tolalar atrofidagi bug'larning issiqlik izolyatsiyasi chegara qatlami yo'q qilinadi. Natijada, quritish agentining past haroratida paxta xom ashyosini quritish jarayoni kuchayadi, chunki u issiqlikning asosiy namlik tashuvchisiga-chigitga tez kirib borish imkoniyatini yaratadi.

2SB-10 rusumli paxtani barabanli quritgichini gabarit o'lchamlarini qisqartilishi hisobiga baraban ichidagi paxtaga quritish agentini uzatishni intensivlashtiradigan, barabanni tashqi yuzasi maydoni kamayishi hisobiga tashqi muhitga barabanni yuzasidan issiqlik yo'qotilishi kamatiruvchi, quritish agentidan foydalanish samarasini oshirish hisobiga uning sarfini kamayishini ta'minlovchi kichik o'lchamli quritish barabanini ishlab chiqarish uchun texnik yechim taklif etildi.

Texnik taklifni sxemasi va gabarit o'lchamlarini tanlab olishda, Respublikamizda keng rivojlangan paxta to'qimachilik klasterlari tizimidagi paxta tozalash korxonalarini paxtani dastlabki ishlash bo'yicha ish rejimlari va o'rtacha ish unumdorliklari hisobga olindi. Bu korxonalarning o'rtacha ish unumdorliklarini tahlil qilganimizda ularning ish unumdorliklari o'rtacha 5-6 tonna/soatni tashkil etdi.

Bu ma'lumotlarni hisobga olgan holda quyidagi 1-rasmda ko'rsatilgan paxta xomashyosini barabanli quritgichini sxemasi keltirilgan.



2-rasm. Taklif etilgan gabarit o'lchamlari kichraytirilgan quritish barabanining sxemasi.

Taklif etilgan quritish barabani (2-rasmga qarang) asosan silindrik korpus, baraban obechaykasi 1, quritish agenti quvuri 2, tutun chiqish quvuri 3, rolikli barabanni aylantirish mexanizmi 4, rama 5, roliklarni yo'naltirgichi 6 va paxtani kiritish lotogi 7 dan iborat.

Paxtani quritish barabanining diametri 2 m, uzunligi 6 m ga teng deb qabul qilingan. Barabanning ichki yuzasi amaldagi 2SB-10 rusumli barabanli quritgichnikidagi bilan bir xil bo'ylama va ko'ndalang kuraklarga ega bo'ladi. Faqat bu lopastlarni o'lchamlari mos ravishda kichraytirilgan. Barabanli quritgichning ish rejimlarini optimal qiymatlarini tavsiya etish uchun o'rganish maqsadida zanjirli rolikli harakatlantirish mexanizmi qo'llanilib, uning elektr dvigateli chastota o'zgartirish bilan ta'minlanadi. Tajriba uchun tayyorlanadigan geometrik o'lchamlari kichraytirilgan quritish barabanining ish unumdorligini maksimal 6-7 tonna/soat

gacha bo'lishi rejalashtirilmoqda. Buncha ish unumdorligidagi paxtadan me'yordagi namlikni olish uchun zarur bo'ladigan quritish agentining miqdori va uning harorati tajribalarda o'rganiladi.

Dissertatsiyaning **“Issiqlik agentini radial kiritib berish usuli bilan paxtani quritish jarayonini nazariy o'rganish natijalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ishlab chiqilgan paxtani quritish barabaniga quritish agentini radial kiritish usulini asosiy parametrlari va ish rejimlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

Paxta bo'lakchalariga namlikni bug'latish uchun sarflanadigan quritish jarayonini energiyasini issiqlik miqdori bo'yicha bog'liqligini aniqlaymiz.

$$dQ = \alpha \cdot (t_0 - t_1) \cdot F \cdot dt \quad (1)$$

bu yerda: t_0 – issiq havo xarorati;

t_1 – paxta bo'lakchasining sirtidagi xarorati;

α – issiqlik almashinuvi koeffitsienti;

F – paxta bo'lakchasining yuzasi.

Pasayuvchan tezlik davrida paxta bo'lakchasini quritishda issiqlikning bir qismi paxta namligini bug'latishga, yana bir qismi esa paxta bo'lakchasini qizdirishga sarf bo'ladi. Nam paxta bo'lakchasini qabul qilayotgan issiqlik miqdori Q ni quyidagicha aniqlaymiz (3-rasm).

$$Q = (c_1 \cdot m_1 + c_2 \cdot m_2) \cdot \Delta t \quad (2)$$

bu yerda: c_1 – paxta bo'lakchasini solishtirma sig'imi,

c_2 – paxta bo'lakchasini o'rtacha issiqlik sig'imi,

m_1 – paxta bo'lakchasini massasi,

m_2 – paxtaning namlik vazni,

Δt – paxta bo'lakchasining o'rtacha harorati.

Quritish barabanidagi paxta oqimining tezligi vaqtida quritishini quyidagicha aniqlaymiz.

$$\frac{dw}{dt} = \beta \cdot F \cdot (P - P_0) \quad (3)$$

(3) ifodadan quritish barabanidagi paxta bo'lakchasining issiq havo ta'siridagi tezligini aniqlaymiz.

$$g_x \cdot \sin \phi = \beta \cdot F \cdot (P - P_0) \quad (4)$$

$P - P_0$ - bu xolatda bir xil quritish potensialiga ega bo'ladi.

Bu yerda: β - bug'lanish koeffitsienti, ϕ - issiq xavoning uzatishdagi og'ish burchagi

P - bug'ning bosimi,


P_0 – havoning bosimi,

F - paxta bo'lakchasining yuzasi.

Bu xolatda quritish barabandagi paxta oqimiga quvur yordamida berilayotgan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi.

$$Q = \alpha \cdot (t_0 - t) \cdot F \quad (5)$$

Quritish barabanidagi paxta bo'lakchalariga issiqlik oqimi ta'siridagi harakatini ifodalaydigan tenglamalarni aniqlaymiz.



3-rasm. Issiqlik agentini radial kiritish ta'sirida quritish barabanidagi paxta bo'lakchasining A nuqtadagi harakat sxemasi

Quritish barabanidagi paxta bo'lakchasining harakatidan quritish samaradorligini aniqlashda takomillashgan quritish barabaniga joylashtirilgan teshikli quvurdan berilayotgan issiq havo ta'siridagi paxta bo'lakchasining harakati silindrik traektoriyadan iborat.

$$\begin{aligned} X &= r_0 \cdot \cos \varphi \\ Y &= r_0 \cdot \sin \varphi \\ Z &= z \end{aligned} \quad (6)$$

Quritish barabanidagi paxta bo'lakchasiga issiq havo oqimi ta'siridagi yo'nalishdan tezliklarini aniqlaymiz, buning uchun (6) ifodadan hosila olamiz:

$$\begin{aligned} \dot{X} &= -r_0 \cdot \sin \varphi \cdot \dot{\varphi} \\ \dot{Y} &= r_0 \cdot \cos \varphi \cdot \dot{\varphi} \\ \dot{Z} &= \dot{z} \end{aligned} \quad (7)$$


(7) ifodadan paxta bo'lakchasining tezlik modulini aniqlab, kinetik energiyasining o'zgarishi haqidagi teorema asosan aniqlaymiz.

$$\dot{S} = \sqrt{\dot{X}^2 + \dot{Y}^2 + \dot{Z}^2} = \sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\varphi}^2 + \dot{z}^2}$$

aniqlangan tezlik modulini quritish barabanidagi paxta bo'lakchasining kinetik energiyasini aniqlaymiz.

$$T = \frac{m}{2} \cdot \dot{S}^2 = \frac{m}{2} \cdot (r_0^2 \cdot \dot{\varphi}^2 + \dot{z}^2) \quad (8)$$

A nuqtada paxta bo'lakchasiga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar orqali ifodalaymiz (3-rasm).



4-rasm. Issiqlik agentini radial kiritish usulida quritish barabanidagi paxta bo'lakchasiga tashqi kuchlar ta'siridagi harakat sxemasi

4-rasmdagi belgilanishlarga izox beramiz:

$\dot{S} = \sqrt{\dot{X}^2 + \dot{Y}^2 + \dot{Z}^2} = \sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\varphi}^2 + \dot{z}^2}$ -paxta oqimining tezligi bilan burchak ostida berilayotgan issiq xavoning uzatish tezliklarini natijalovchi tezligi

$P = m \cdot g$ -og'irlik kuchi,

$F_{\text{uc.x}} = \lambda \cdot \sqrt{\mathcal{G}_x^2 + \mathcal{G}_0^2 - 2 \cdot \mathcal{G}_x \cdot \mathcal{G}_0 \cdot \cos \phi}$ -issiq havoning ta'sir kuchi,

$F_{\text{muv}} = f \cdot N$ -ishqalanish kuchi,

$\mathcal{G}_x$ – issiq havoning tezligi,

ϕ -issiq xavoning uzatishdagi og'ish burchagi

$\mathcal{G}_0$ – paxta oqimining tezligi.

Paxta bo'lakchalariga ta'sir qilayotgan tashqi kuchlarni koordinatalar o'qidagi proeksiyalarini aniqlaymiz.

$$y = -m \cdot g, z = \lambda \cdot (\mathcal{G}_x^2 + \mathcal{G}_0^2 - 2 \cdot \mathcal{G}_x \cdot \mathcal{G}_0 \cdot \cos \phi),$$

$$x = f \cdot N \cdot \frac{\dot{x}}{|\mathcal{G}|}, y = -f \cdot N \cdot \frac{\dot{y}}{|\mathcal{G}|}, z = f \cdot N \cdot \frac{\dot{z}}{|\mathcal{G}|} \quad (9)$$

Mos ravishda quritish barabanidagi paxta bo'lakchalariga koordinata o'qlari bo'yicha umumlashgan kuchlarni quyidagicha aniqlaymiz.

$$F_z = \lambda \cdot (\mathcal{G}_x^2 + \mathcal{G}_0^2 - 2 \cdot \mathcal{G}_x \cdot \mathcal{G}_0 \cdot \cos \phi) - f \cdot N \cdot \frac{\dot{z}}{|\mathcal{G}|} \quad (10)$$

$$F_\phi = m \cdot g \cdot \sin \phi - f \cdot N \cdot \frac{\dot{\phi}}{|\mathcal{G}|}$$

Lagranjning 2-tur tenglamasidan foydalanib quritish barabanidagi paxta bo'lakchasiga ta'sir qilayotgan tashqi kuchlar ta'siridagi harakatini o'zgaruvchan ϕ va r bo'yicha differensial tenglamasini tuzamiz:

$$\begin{aligned} \frac{d}{dt} \left(\frac{dT}{d\dot{\phi}} \right) - \frac{dT}{d\phi} &= F_\phi \\ \frac{d}{dt} \left(\frac{dT}{d\dot{z}} \right) - \frac{dT}{dz} &= F_z \end{aligned} \quad (11)$$

(8) tenglikdan xususiylar olinib ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned} m \cdot r_0^2 \cdot \ddot{\phi} &= m \cdot g \cdot \sin \phi - f \cdot N \cdot \frac{\dot{\phi}}{|\mathcal{G}|} \\ m \cdot \ddot{z} &= \lambda \cdot (\mathcal{G}_x^2 + \mathcal{G}_0^2 - 2 \cdot \mathcal{G}_x \cdot \mathcal{G}_0 \cdot \cos \phi) - f \cdot N \cdot \frac{\dot{z}}{|\mathcal{G}|} \end{aligned} \quad (12)$$

Bu yerda $\dot{x} = r_0 \cdot \dot{\phi}$, $\dot{z} = \mathcal{G}_0$ ga teng $|\mathcal{G}| = \sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\phi}^2 + \dot{z}^2}$ aniqlanadi.

Bu tengliklarni (12) ifodaga qo'yamiz

$$\begin{aligned} m \cdot r_0^2 \cdot \ddot{\phi} &= m \cdot g \cdot \sin \phi - f \cdot N \cdot \frac{r_0 \cdot \dot{\phi}}{|\mathcal{G}|} \\ m \cdot \ddot{z} &= \lambda \cdot (\mathcal{G}_x^2 + \mathcal{G}_0^2 - 2 \cdot \mathcal{G}_x \cdot \mathcal{G}_0 \cdot \cos \phi) - f \cdot N \cdot \frac{\mathcal{G}_0}{\sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\phi}^2 + \dot{z}^2}} \end{aligned} \quad (13)$$

(4) tenglikni ya'ni quritish baraban ichidagi paxta bo'lakchalarini issiq havo oqim tezligini (13) tenglikka qo'yib paxta bo'lakchalariga berilayotgan issiq oqim ta'siridagi harakatini ifodalaymiz.

$$m \cdot r_0^2 \cdot \ddot{\phi} = m \cdot g \cdot \sin \phi - f \cdot N \cdot \frac{r_0 \cdot \dot{\phi}}{\sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\phi}^2 + \dot{z}^2}} \quad (14)$$


$$m \cdot \ddot{z} = \lambda \cdot (\beta^2 \cdot F^2 \cdot (P - P_0)^2 / \sin^2 \phi + \mathcal{G}_0^2) - f \cdot N \cdot \frac{\mathcal{G}_0}{\sqrt{r_0^2 \cdot \dot{\phi}^2 + \dot{z}^2}}$$

(14) sistemani integrallash uchun boshlang'ich shartlar


$$z = 0; \phi = 0; \dot{z} = 0; \dot{\phi} = 0; 0 \leq \phi \leq \frac{\pi}{2}; \phi = 30^\circ \div 60^\circ$$

Paxta bo'lakchalarini gorizontol yo'nalishidagi xarakatini quvurdagi teshiklar diametrlarining a) $d_1=30 \text{ mm}$, b) $d_2=20 \text{ mm}$, s) $d_3=10 \text{ mm}$ qiymatlarida quritish barabanining uzunligi bo'yicha o'zgarish grafigi 4-rasmda keltirilgan.

Quritish barabanida paxta bo'lakchalarini gorizontol yo'nalishidagi xarakatini quvurdan berilayotgan issiq havo oqimi tezliklarining turli xil burchaklarida a) $\phi_1 = 30^\circ$, b) $\phi_2 = 45^\circ$, s) $\phi = 60^\circ$, qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Quritish barabanida paxta bo'lakchasining gorizontol yo'nalishidagi xarakatini quvurdagi teshiklar diametrlarining turli xil $d_1=10 \text{ mm}$, $d_1=20 \text{ mm}$, $d_1=30 \text{ mm}$, qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi



6-rasm. Quritish barabanida paxta bo'lakchasining gorizontol yo'nalishidagi xarakatini trubadan berilayotgan issiq havo oqimi tezliklarining turli xil $\mathcal{G}_1=8 \text{ m/s}$, $\mathcal{G}_2=10 \text{ m/s}$, $\mathcal{G}_3=12 \text{ m/s}$, qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi


5 va 6-rasmdan ko'rinib turibdiki, bir xil miqdor va xaroratdagi quritish agentini baraban ichiga teshikli quvur orqali radial kiritib berilganida amaldagi baraban ichiga quritish agentini kiritib berish usuliga nisbatan taxminan ikki barobar quritilayotgan paxtadan namlikni olish samaradorligiga erishish mumkin ekan. Bunga asosiy sabab, baraban ichiga quritish agentini teshikli quvur orqali radial kiritib berilganida, birinchidan quritish agentining xarorati va tezligini keskin tushib ketmasligi ta'minlanadi, ikkinchidan barabanning ichki yuzasidan yuqoriga ko'tarilib, to'kilayotgan titilgan paxta yuzasiga yuqori tezlik va xaroratdagi quritish agentini yetkazib beriladi

Dissertatsiyaning **“Zanjirli uzatmali kichik hajmli barabanli quritgichini nazariy tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan kichik hajmli zanjirli uzatmali barabanli quritgichini asosiy parametrlari va ish rejimlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

Paxta xomashyosini ko'tarish uchun sarflangan ish va vaqtni bilib, biz iste'mol qilinadigan quvvatni topishimiz mumkin. Ko'tarilish vaqtini barabanning aylanishlar soni orqali quyidagi formuladan aniqlanishi mumkin (7-rasm):

$$t = \frac{\beta}{\omega} = \frac{30\beta}{\pi n} \quad (15)$$

Bu yerda: β - pastki nuqtadan paxtani tushish nuqtasiga qayrilish burchagi, rad;
 n - barabanning aylanishlar soni.



7-rasm. Kichik hajmga ega zanjirli uzatmali baraban quritgichini paxtani ko'tarish balandligini aniqlashni hisoblash sxemasi.

Endi baraban quritgichida paxtani ko'tarish uchun zarur bo'lgan quvvatni aniqlaylik:

$$N = \frac{A}{t} = \frac{m_1 g (h - h_0) \pi n}{30\beta} \quad (16)$$

h_0 ni nolga teng deb olamiz, keyin paxta massasini ko'tarilish balandligini quyidagi formula yordamida topish mumkin:

$$h = \frac{D}{2} + D \cos \beta \quad (17)$$

Aylantiruvchi momentni aniqlash formulasini bilgan holda, undan foydalanishimiz va aylantiruvchi momentni aniqlashimiz mumkin; bunda: m_1 -massasini paxta xomashyosi massasining 1/3 qismiga teng deb qabul qilamiz:

$$M_{kp} = \frac{N}{\omega} = \frac{m_1 g \left(\frac{D}{2} + D \cos \beta \right)}{\beta} = \frac{mg \left(\frac{D}{2} + D \cos \beta \right)}{3\beta} \quad (18)$$

Shunday qilib, kuchlar va foydali aylantirish momentining qiymatlariga ega bo'lgan holda, biz yetaklovchi tishli g'ildirakka keladigan umumiy aylantirish momentini aniqlaymiz:

$$M_{ob} = M_{kam} + M_{yan} + M_{pol} = d_{kam} \sqrt{p \frac{1-\mu^2}{\pi} \frac{2}{E} \frac{d_{kam} D_{kam,y.n}}{2(d_{kam} + D_{kam,y.n})}} (m + M) g \cos \alpha + \\ + d_{yan} k_2 \frac{(m + M)}{4} g \frac{mg \left(\frac{D}{2} + D \cos \beta \right)}{3\beta} \quad (19)$$

Elektr motorining quvvatini oraliq uzatmalarda quvvat yo'qotilishini hisobga olgan holda, quyidagi formuladan foydalangan holda aniqlaymiz:

$$N_{\text{эл}} = \frac{N_{\text{бap}}}{\eta_{\text{у.п}} \eta_{\text{у.п}} \eta_{\text{р.п}} \eta_{\text{ред}} \eta_{\text{р.п}}} = 1,5 N_{\text{бap}} \quad (20)$$

Bu yerda:

$\eta_{\text{у.п}}$ - zanjirli uzatmaning barabanga f.i.k., 0,96;

$\eta_{\text{у.п}}$ - zanjirli uzatmaning reduktor o'qiga uzatishda f.i.k., 0,96;


$\eta_{\text{р.п}}$ - zanjirli uzatmaning f.i.k., 0,8;

$\eta_{\text{ред}}$ - reduktorning f.i.k., 0,9.

Tanlab olingan zanjirning qadami va baraban quritgichining diametri 2000 mm ga teng bo'lsa, tishning balandligini hisobga olgan holda, katta g'ildirakning tishlari soni quyidagicha aniqlanadi (8-rasm):

Birinchidan, tishning balandligini hisobga olgan holda tishli g'ildirakning perimetrini aniqlaymiz, masalan, 25 mm.

$$L_z = 2 \cdot \pi \cdot r = 2 \cdot 3,14 \cdot 1,0 = 6280 \text{ mm};$$



8-rasm. Zanjirli uzatmaning geometric o'lchamlarini aniqlash diagrammasi.

Shuning uchun katta g'ildirakning tishlari soni: $6280/50,8 = 123,62$ dona

Uni butun songa yaxlitlaymiz va 124 donaga teng deb olamiz.

Rolikli zanjirlar uchun kichik yetaklovchi tishli g'ildirakning minimal tishlari soni quyidagi empiric formulaga asosan hisoblanadi:

$$Z_{1\min} = 29 - 2u \quad (21)$$

$v \leq 2$ m/s tezliklarda bu raqam $Z_{\min} \geq 13 \dots 15$ gacha ko'paytirilishi mumkin, $v \geq 2$ m/s ga teng bo'lgan tezliklarda $Z_{\min} \geq 19$, agar zarba yuklari bo'lgan uzatmalar bo'lsa, $Z_{\min} \geq 23$ teng deb qabul qilish tavsiya etiladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, bizning holatlarimiz uchun kichik tishli g'ildirak tishlarining soni 18 donaga teng tanlanishi mumkin.

Demak, kichik tishli g'ildirakning diametri quyidagiga teng bo'ladi:

$$d_{a1} = 914,4/3,14 = 291,2 \text{ mm}.$$

Keyin «u» tishli g'ildiraklarni uzatish nisbati quyidagi bog'liqlik bilan aniqlanishi mumkin:

$$u = \frac{n_1}{n_2} = \frac{Z_2}{Z_1} = \frac{124}{18} = 6,88 = 7$$

Yetaklanuvchi tishli g'ildirakning (barabanli quritgichning) kerakli o'rtacha aylanish tezligi 10 ayl/daq ga teng tanlanishiga asoslanib, yetaklovchi tishli g'ildiragining aylanish tezligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$n_1 = 7 \times 10 = 70 \text{ ayl/daq}.$$

Tishli g'ildiraklarning markazidan markazigacha bo'lgan masofani aniqlash quyidagicha bo'ladi.

Zanjirli uzatmaning taxminiy optimal g'ildirakli tishlar o'qlarining orasidagi markazdan markazgacha masofasi zanjir qadami t , ga qarab odatda quyidagi oraliqda tanlanadi:

$a \geq (30 \div 50) t$ (kichik uzatish nisbatlarida kamroq qiymatlar qabul qilinadi).

Zanjirli uzatmaning minimal tishli g'ildiraklar o'qlari masofasi « a_{tip} » zanjirli uzatmani uzatish nisbati soni « i » va kichik tishli g'ildirakning zanjirni o'rab olish burchagining 120° kam bo'lmasligi sharti, yoki $u > 3$ bo'lganida quyidagicha aniqlanadi:

$$a_{min} = \frac{9+u}{20} (d_{a1} + d_{a2}) \quad (22)$$
$$a_{tip} = \frac{9+7}{20} \cdot (2,0 + 0,29) = 1,83 \text{ m}$$

bu yerda: d_{a1} , d_{a2} - yetaklovchi va yetaklanuvchi tishli tishlarning uchlari diametrlari.

Maksimal ruxsat etilgan tishli g'ildiraklar o'qlari orasidagi markazdan markazgacha masofasini quyidagicha tanlash mumkin:

$$a_{max} = 80t = 80 \times 0,058 = 4,64 \text{ m.}$$

Zanjirli uzatmani tezligi v , m/s , ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$v = n \cdot z \cdot t / (60 \times 10^3).$$

bu yerda: n – tishli g'ildirakning aylanish chastotasi, min^{-1} ;

z – shu tishli g'ildirakdagi tishlar soni;

t – zanjirli uzatmani qadami.

bundan:

$$v = 70 \times 18 \times 58,8 / (60 \times 10^3) = 1,23 \text{ m/s.}$$

Yuqoridagi hisoblangan ma'lumotlar tavsiya etilgan geometrik o'lchamlari kichraytirilgan barabanli quritgichi uchun ishlab chiqilgan zanjirli uzatmani asosiy o'lchamlari tanlab olish va konstruktiv parametrlarini aniqlash uchun zarurdir.

Dissertatsiyaning **“Paxtani quritish agentini radial kiritish usulini barabanli quritgichni ish rejimlariga ta'sirini o'rganish natijalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishning maxsus ishlab chiqilgan uslublari, shuningdek, ishlab chiqilgan paxtani quritish barabaniga quritish agentini radial kiritib berish usulini parametrlari va ish rejimlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Tajribalarni o'tkazish uchun uzunligi 3, 4 va 5 m ga teng bo'lgan teshik-teshikli trubaning uchta varianti tayyorlandi, barcha variantlar uchun teshilgan trubaning diametri teng bo'lib, 230 mm ni tashkil etgan edi. Paxtani barabanli quritgichiga ta'minlanayotgan quritish agentining miqdori $18000 \text{ m}^3/\text{soatga}$ teng bo'lib, baraban ichiga teshikli quvur orqali radial kiritib beriladigan quritish agentining miqdori quvurning bosh qismiga o'rnatilgan zaslonka (to'skich) yordamida rostlandi. Quritish agentining miqdorlari amaldagi ma'lum metodik uslublardan foydalangan xolda aniqlangan.

Quvurlardagi umumiy teshilish maydoni tanlangan quvurning ko'ndalang kesimi maydoniga teng bo'lib, undan kam xam emas, ko'p xam bo'lishiga yo'l

qo'ymagan xolda hisoblashdan tanlandi. Masalan tanlab olingan quvurning diametri 230 mm ga teng bo'lsa, uning xisoblangan ko'ndalang kesimi $0,0706 \text{ m}^2$ ga teng bo'ladi. Mana shu xisoblashga asoslanib, teshiklarning umumiy soni, mos xolda tanlab olingan teshiklarning diametriga bog'liq xolda aniqlanib olindi.



9-rasm. Quritish agentining bir qismini, taxminan 30-40 % ini quvur orqali radial kiritib berishni amalga oshirish maqsadida tayyorlangan quvurli moslamalarni o'rnatilgandagi ko'rinishi

Teshikli quvurning konstruktiv mustaxkamligini kamaytirmaslik va teshiklardan chiqadigan quritish agentining tezligini xaddan ziyod yuqori bo'lmashligini ta'minlash uchun teshiklarni diametrini 20 mm ga teng deb qabul qildik. Bu tanlovimiz bo'yicha quvurdagi teshiklarni umumiy soni 56 donani tashkil etadi. Bu teshiklarni baraban ichiga kiritilganidan boshlab xisoblangan quvurlarni uzunligi bo'ylab ikkita qatorda 28 donadan teshiklarni oraliq masofasini teng bo'lgan xolatda joylashtirildi. Tanlab olingan quvurning diametri barcha variantlar uchun o'zgaras bo'lgani uchun 3, 4 va 5 m ga teng bo'lgan quvurlardagi teshiklar soni xam bir biriga teng bo'lib 56 donadanni tashkil etadi. Faqat teshiklar orasidagi masofa mos xolatda 3 m li quvurda 93 mm ni, 4 m li quvurda 130 mm ni va 5 m li quvurda 170 mm ni tashkil etdi.

Tajribalar davomida namligi 12,8 % va iflosligi 4,9 % bo'lgan birinchi sanoat navidagi C-6524 seleksiyasiga mansub paxta xom ashyosi ishlatilgan.

Teshikli quvur orqali baraban ichiga radial kiritiladigan quritish agentining miqdoriga nisbatan paxta xom ashyosini quritish davomiyligini aniqlash bo'yicha tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, barabanli quritgichida paxta xom ashyosini quritish davomiyligi quritish barabaniga quritish agentini radial yetkazib berish uchun ishlatiladigan teshikli quvurning uzunligiga bog'liq emas. 3 dan 5 m gacha teshilgan quvur uzunligining tanlangan qiymatlari bilan, teshilgan quvur orqali radial kiritish usuli bilan barabanga ta'minlanadigan quritish agenti miqdorining doimiy qiymati bilan (quritish agentining umumiy miqdoriga foiz sifatida), masalan, radial kiritish miqdori 30 % ga teng bo'lganida, paxta xom ashyosini quritish vaqti 4,96-5,1 min ga teng bo'lganini jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

Biroq, 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, teshikli quvur uzunligidan qat'i nazar, bu teshikli quvur uzunligining o'rganilgan uchta variantida xam paxtani quritish davomiyligi baraban ichiga radial kiritib berilayotgan quritish agentining miqdoriga qarab o'zgaradi.

1-jadval

Teshikli quvur orqali baraban ichiga radial kiritiladigan quritish agentining miqdoriga nisbatan paxta xom ashyosini quritish davomiyligini aniqlash

Teshikli quvurni o'rganilgan uzunliklari, m	Teshikli quvur orqali baraban ichiga radial kiritiladigan quritish agentining miqdoriga nisbatan paxta xom ashyosini quritish davomiyligi (min) (umumiy quritish agentining miqdoriga nisbatan foizda)		
	30	35	40
5	5,0	5,3	7,1
	5,1	5,7	7,0
	4,8	5,2	6,7
o'rtacha	4,96	5,4	6,93
4	5,3	5,7	6,6
	5,1	5,3	6,9
	4,9	5,4	7,4
o'rtacha	5,1	5,46	6,96
3	5,2	5,2	7,1
	5,1	5,3	7,0
	4,8	5,6	6,7
o'rtacha	5,03	5,36	6,93

2-jadval

Quritish agentini radial quritish quvuridagi teshiklarni barabanning vertikal o'qiga nisbatan og'ish burchagini paxtani quritish samaradorligiga ta'sirini o'rganish natijalari

Quritish agentini radial quritish quvuridagi teshiklarni barabanning vertikal o'qiga nisbatan og'ish burchagi, grad	Teshikli quvur orqali baraban ichiga radial kiritiladigan quritish agentining miqdori (foiz) ni paxtani quritish samaradorligi (paxtadan namlikni olish foizi) ga ta'siri		
	30	35	40
0°	2,4	3,1	2,7
	2,8	3,0	2,8
	2,6	2,8	2,6
o'rtacha	2,6	2,96	2,7
30°	2,8	3,2	2,9
	2,8	3,5	3,0
	2,9	3,4	2,9
o'rtacha	2,83	3,36	2,93
45°	2,9	2,9	2,8
	2,7	2,8	3,0
	2,6	2,9	2,7
o'rtacha	2,73	2,86	2,83

Masalan, baraban ichiga teshikli quvur orqali radial usulda kiritib berilayotgan quritish agentining miqdori umumiy quritish agentining miqdoriga nisbatan 30% ga teng bo'lganida tanlangan 5 m teng teshikli quvur uzunligida paxta xom ashyosini quritish davomiyligi 4,96 min ga teng bo'lgan bo'lsa, teshikli quvur orqali radial usulda kiritib berilayotgan quritish agentining miqdori umumiy quritish agentining miqdoriga nisbatan 30% dan 40 % gacha oshirilganida tanlangan 5 m teng teshikli quvur uzunligida paxta xom ashyosini quritish davomiyligi 6,93 min gacha oshganini ko'rishimiz mumkin.

2-jadvalda quritish agentini radial quritish quvuridagi teshiklarni barabanning vertikal o'qiga nisbatan og'ish burchagini paxtani quritish samaradorligiga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

2-jadvaldagi ma'lumotlarni taxlilidan aytish mumkinki, quritish agentini radial quritish quvuridagi teshiklarni barabanning vertikal o'qiga nisbatan og'ish burchagini 90° dan 75° gacha o'zgartirilganida quritilayotgan paxta xom ashyosidan namlikni olish miqdori og'ish burchagini 90° ga teng bo'lganida quritish agentini radial kiritish miqdoriga bog'liq ravishda: - 30 % ga teng bo'lganida- 2,6 % dan 2,86 % ga, 35 % ga teng bo'lganida – 2,96 % dan 3,36 % ga, 40 % ga teng bo'lganida – 2,7 % dan 2,93 % ga oshganini aniqlandi.

3-jadval

Baraban ichiga quritish agentini radial quritish usuli qo'llanilganda quritish agenti xarorati va sarfiga ta'sirini o'rganish natijalari

Baraban ichiga kiritib beriladigan quritish agentining xarorati, 0° grad	Teshikli quvur orqali baraban ichiga radial kiritiladigan quritish agentining miqdori (foiz) ni paxtani quritish samaradorligi (paxtadan namlikni olish foizi) ga ta'siri		
	0	35	40
